

O'ZBEKISTON FLORASIDA KENG TARQALGAN DORIVOR O'SIMLIKLAR

Tursunova Muslima Xusamjon qizi

Rasulova Oynura Olimjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya yo'nalishi 2-bosqich talabalari

tursunovamuslima77@gmail.com ismoilrasulov53@gmail.com

Annotatsiya: Dorivor o'simliklar tarkibida ma'lum kasalliklarga shifo bo'la oladigan, kishi organizmiga tasir korsatadigan biologik faol moddalar saqlaydi. O'zbekiston hududida ham ulardan bir qanchasi uchraydi xususan aloy, namatak, shirinmiya, isiriq, marmarak va shular kabilar. Ushbu maqolada ularning xususiyatlari batafsil bayon etilgan.

Аннотация: Лекарственные растения содержат биологически активные вещества, способные излечивать некоторые заболевания и влиять на организм человека. Некоторые из них встречаются на территории Узбекистана, в частности, алой, наматак, ширинмия, ладан, мармарак и др. В этой статье подробно описаны их характеристики.

Annotation: Medicinal plants contain biologically active substances that can cure certain diseases and affect the human body. Some of them are found in the territory of Uzbekistan, in particular, aloy, namatak, shirinmiya, incense, marmarak, etc. This article describes their characteristics in detail.

Kalit sozlar: dorivor, geografik tarqalish, o'simliklar, kimyoviy tarkib, biologik tarkib, foydali xususiyatlari, aloy, namatak, marmarak, shirinmiya, tibbiyotda qo'llanilishi.

Ключевые слова: лекарственное средство, географическое распространение, растения, химический состав, биологический состав, полезные свойства, алоэ, наматак, мармарак, перец сладкий, применение в медицине.

Key words: medicinal, geographical distribution, plants, chemical composition, biological composition, useful properties, aloe, namatak, marmarak, sweet pepper, use in medicine.

Malumki, odam va hayvonlarda uchraydigan kasalliklarni davolash hamda shu kasalliklarni oldini olish maqsadida ishlatiladigan o'simliklar dorivor o'simliklar hisoblanadi. Kasalliklarni davolash uchun odatda dorivor o'simliklardan dorixona, formoseftika zavodlari va fabrikalari, Galen laboratoriyalarida yoki uy sharoitida bir qator dori preparatlari tayyorlanadi yoki ulardan dori tayyorlash uchun sof holda kimyoviy birikmalar osimliklarning biologik aktiv moddalari ajratib olinadi. O'simliklarning ko'pchiligi zaharli bo'lmagan biologik faol moddalar saqlovchi va turli kasalliklarni davolash uchun qo'llaniladigan shifobaxsh o'simliklardir. Dorivor o'simliklarni kasalliklarni davolash maqsadida qo'llash uchun odatda ulardan ko'pincha damlama, qaynatma, nastoyka, ekstrakt yoki boshqa preparatlar tayyorlanadi. Ularning aksariyat suv, turli darajadagi spirt va boshqalar yordamida turli mahsulotlardan ajratib olinadi. Natijada biologik aktiv moddalardan iborat dori vujudga keladi. Hozirgi kunda yovvoyi holda o'sadigan va ostirilayotgan o'simliklarning 230 dan ortiq turidan tabobatda mahsulot tayyorlanadi. Shulardan 152 turining 71 mahsulotidan kimyoviy formoseftika sanoatida 254 xilga yaqin dori preparatlar olinmoqda. Yuqoridagi zikr etilgan dalil va mulohazalar dorivor o'simliklarning tibbiyotda tutgan o'rni va ularning ahamiyatini kun sayin ortib borishini isbotidir. Quyida ulardan bir nechtasi bilan tanishib chiqamiz. Aloe-piyozguldoshlar oilasiga mansub, bo'yi 4 m gacha yetadigan doim yashil darxsimon yoki o't o'simlik. Barglari qini yordqmida poyada ketma ket joylashgan, ko'pincha poyasini yuqorigi qismida topbarg hosil qiladi. Barglari qalin sershira, yumshoq, qilichsimon, yuqori tomoni botiq, pastki tomoni dong bolib chiqadi. Vatani

Afrikaning janubi-sharqidagi yarimchollar, O'rta Osiyoda bir yillik o'simlik sifatida, xonalarda ko'p yillik o'simlik o'rnida ostiriladi. Bargidan foydalaniladi. Barglari tarkibidan olinadigan sabur tarkibida antratsen hosilalari, smolalar, efir moyi, achchiq va boshqa moddalar bor.



1-rasm. Aloe o'simligi

Aloe bargi qadimda xalq tabobatda ishlatilib kelingan. Qurilmagan bargi va uning shirasi me'da va o'n ikki barmoq ichak yaralarini davolaehda qo'llaniladi. O'pka silini davolashda aloe bargi shirasini asal bilan aralshtirilib pishiriladi va bemorga iste'mol qilishga beriladi. Aloe bargini o'rtasidan uzunasiga kesib, tananing kesilgan joyiga shirasini yaralarga ular yiringlab ketmasligi va tez bitishi uchun qo'yiladi. Sabur preparatlarni bavirusil kasalligida, homiladorlikda iste'mol qilmaslik lozim, aks holda qon ko'p ketishi, homiladir ayollqrdada bola tushishi mumkin. Anjir- tutdoshlar oilasiga mansub, bo'yi 8 metrgacha yetadigan buta yoki daraxt. Barglari yirik, umumiy ko'rinishi yumaloq yoki tuxumsimon, uch besh bolakli bo'lib, uzun bandi yordamida poyaei bilan shoxlarida ketma ket joylashgan Mevasi noksimon yoki yassi sariq yoki qo'ng'ir rangli, sershira to'p meva O'rta Osiyo, Qozog'iston, Krasnoyarsk o'lkasida Kavkaz va Krimda o'sadi va ko'p miqdorda ostiriladi. Uning bargi va mevasidan foydalaniladi. Mevasi-surgi dori kafiol tarkibiga kiradi. Bargning furokumarinlar summasi preparati psoberan eritma va tabletka holida vitiligo kasalligini davolashda ishlatiladi. Anjir mevasi tarkibida fitsin fermenti bo'lgani u yana tromboemboliya kasalligini, ko'p miqdorda qandlar va kaliy tuzlari saqlaganligi uchun yurak - qon tomir kasalliklarini davolashda qo'llaniladi.



2-rasm. Anjir daraxti

Abu Ali Ibn sino anjir mevasini balgam ko'chiruvchi vosita sifatida yeyishni, yotalni qoldirish uchun yotalni qoldirish uchun mevasini sutda pishirib, so'ng iste'mol qilishni buyurgan. Anjir mevasi xalq tabobatda gastrit surunkali qabziyatni davolash uchun hamda balg'am ko'chiruvchi va siydik haydovchi vosita sifatida ishlatiladi. Sutda pishirilgan meva yoki uni qaynatmasi ko'krak yumshatuvchi dori sifatida yotal, ko'k yotal, traxeit, bronxit va nafas yo'llarining boshqa shamollash kasalliklarini davolash uchun qo'llaniladi. Nafas yo'llari kasalligida qaynatmasi bilan tomoq chayiladi, yaralarga issiq qaynatmasi hollangan doka bilan bog'lanadi. Kamqonlik kasalligida quvvatlantiruvchi vosita sifatida anjir mevasini iste'mol qilish buyuriladi. Bo'znoch- astradoshlar oilasiga mansub bo'yi 30 smgacha o'sadigan ko'p yillik o't o'simlik. Poyasi tik o'sadi, bir nechta boladi, shoxlanmagan bo'ladi. Ildiz oldi barglari qisqa bandli, poyadagilari ketma ket joylashgan. Barglari cho'ziq teskari tuxumsimon, poyadagilari nashtarsimon. Sariq gullari sharsimon savatchada to'planib, qalqonsimon rovak gul toplamini hosil qiladi. Mevasi pista meva, osimlikning poya va barglari sertuk, shuning uchun kulrang ko'rinadi. Iyun va avgust oylarida gullaydi, mevasi esa avgust va sentyabr oylarida pishadi. Kavkaz va G'arbiy Sibirda, Qozog'iston yerlarida o'sadi. Guli tarkibida flovonoidlar va efir moylari uchraydi. Gulining dorivor preparatlari jigar kasalligi, xranichiskiy kasallik, o't yo'llari kasalliklarida o't haydovchi vosita sifatida foydalaniladi. Boznoch gulining qaynatmasi yoki damlamasi xalq tabobatida buyrak,

siydik yollari, o't yo'llari kasalliklarida foydalaniladi. Bazan ushbu osimlikdan surtki moddalar ham tayyorlanadi.



3-rasm. Bo'znoch o'simligi

Shunday qilib O'zbekiston florasi tarkibiga kiradigan ko'plab o'simliklar dorivorlik hususiyatiga ega. Ammo bundan hamma ham xabardor emas. Hozirgi kunda ishlab chiqarilayotgan dori vositalarini ko'pchiligi qaysidir orgqnimizga davo bo'lsa, shu bilan bir qatorda qaysidir orgqnimizga zarar. Shunday ekan betob bo'lgan vaqtlarimizda ko'proq tabiiy osimliklardan, yani dorivor hususiyatga ega bolgan o'simliklarimizdan foydalansak, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Buning uchun bizga ko'proq ilmiy malumotlar asqotadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. I. Tog'ayev " Yuksak o'simliklar " Namangan 2015
2. S. Xoliqov, O'. Prator, A. Fayziyev " O'simliklar aniqlagichi" Towhkent 1995
3. S.M Mustafayev, O'. A. Axmedov " Botanika " Toshkent 2012
4. O'. Prator, K. Jumayev " Yuksak o'simliklar sistematikasi" Toshkent 2003
5. A. Xolmatov "Dorivor o'simliklar" Toshkent 2010
6. hujayra.uz